

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAVMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

MAMATKULOV OYBEK XALIKOVICH

**DISPLASTIK KOKSARTROZNI KOMPLEKS DAVOLASH
SAMARADORLIGI**

14.00.22-Travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2024

UO'K: 616.71-001.5-053.2- 007.23-07- 089

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation abstracts of Doctor of Philosophy (PhD)

Mamatkulov Oybek Xalikovich

Displastik koksartrozni kompleks davolash samaradorligi.....3

Маматкулов Ойбек Халикович

Эффективность комплексного лечения диспластического коксартроза...22

Mamatkulov Oybek Xalikovich

Efficiency of complex treatment of dysplastic coxarthrosis41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 48

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TRAUMATOLOGIYA VA
ORTOPEDIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.12.2019.Tib.62.01 RAQAMLI**

ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

MAMATKULOV OYBEK XALIKOVICH

**DISPLASTIK KOKSARTROZNI KOMPLEKS DAVOLASH
SAMARADORLIGI**

14.00.22-Travmatologiya va ortopediya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tib1957 raqami bilan ro‘yxatdan olingan.

Dissertatsiya Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash (www.uzniito.uz), «Ziyonet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) va Milliy axborot agentligining (www.uza.uz) veb-sahifasida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Irismetov Murodjon Ergashevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pavlov Vitaliy Viktorovich
tibbiyot fanlari doctori, professor
(Rossiya Federatsiyasi)

Tadjialievich

Shorustamov Muxammadjon
tibbiyot fanlari doctori

Yetakchi tashkilot:

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi qoshidagi DSc.04/30.12.2019.Tib.62 raqamli Ilmiy kengashining 2024 yil “_____” _____ soat _____ majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100147, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘chasi, 78. Tel:

(+99871)233-10-30: e-mail: niito-tashkent@yandex.ru, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi).

Dissertatsiya bilan Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Axborot-resurs markazida (№_____ bilan ro'yxatga olingan) tanishish mumkin. Manzil: 100147, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 78 . Tel: (+99871) 233-10-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "_____" _____ da tarqatildi.
(2024 yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Djuraev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Raisi o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor

U.M. Rustamova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, tibbiyot fanlari doctori (DSc), katta ilmiy xodim

A.P. Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
tibbiyot fanlari doktori (DSc)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Chanoq-son bo'g'imi displaziyasi koksartrozning rivojlanishiga olib keladigan asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Amalga oshirilgan 10 yillik tadqiqotlar natijasida (The CHECK cohort) chanoq-son bo'g'imi displaziyasi surunkali progressiv degenerativ-destruktiv

jarayonning boshlanishida «...chanoq-son bo'g'imi osteoartrozining klinik ahamiyatga ega va rentgenologik xavf omili»¹ ekanligi isbotlandi. Displastik koksartroz asosan 60-65 va undan katta yoshdagi odamlar orasida ko'proq aniqlangan bo'lsa, hozirgi paytda «...displaziya 21-29% yoshlarda qayd qilinmoqda», bunda displastik koksartroz «...chanoq-son bo'g'imi umumiy patologiyasining 40-87%ini tashkil qiladi»². Ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshlar orasida displastik koksartroz bilan kasallanishning yuqori darajasi, nogironlikning yuqori foizi ushbu patologiyani davolash muammosini ortopediya va travmatologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligini isbotlaydi. Displastik koksartrozni jarrohlik yo'li bilan davolash usullari orasida chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashning afzalligi isbotlangan. Biroq, chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash birlamchi koksartrozga nisbatan standartlashtirilgan bo'lsa, unda displastik chanoq-son bo'g'imida variantlar turlicha, bu esa taktik va texnik qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, u jarrohdan jarrohlik davolash texnikasining yangi yechimlarini izlashni va ishlab chiqilgan arsenalni kengaytirishni, hamda konstruksiyalardan unumli foydalanishni talab qiladi.

Jahon hamjamiyatida lizis, sinish va chiqish endoprotezining infeksiyasi bilan bog'liq displastik koksartrozning eng ko'p uchraydigan holatlarida revision aralashuvni oldini olish maqsadida, mutaxassislarning barcha sa'yi-harakatlari mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, hamda jarrohlik davolash amaliyotining samaradorligini oshiradigan qurilmalarini yaratishga qaratilgan. Displastik bo'g'imdagi shikastlanishlarning o'ziga xos xususiyatlarini, oyoqlarning qisqarishini, bemorning umumiy holatini, shuningdek, bir qator sub'ektiv omillarni hisobga olgan holda, butun dunyo bo'ylab endoprotezlashning turli xil usullaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda, jumladan davolash taktikasi tanlash, endoprotezni o'rnatish uchun texnik vositalarning mavjudligi va ulardan

¹ Vinge R, Riedstra N, Tiderius CJ, Bierma-Zeinstra S, Agricola R, Runhaar J. Hip dysplasia as risk factor for clinically relevant and radiographic hip osteoarthritis: 10-year results from the CHECK cohort. *Rheumatology (Oxford)*. 2023; kead650.

²Tixilov R.M., Shubnyakov I.I., Pliyev D.G., Bogopolskiy O.Ye., Guatsayev M.S. Vozmojnosti rentgenografii v ranney diagnostike patologii tazobedrennogo sustava. *Travmatologiya i ortopediya Rossii*. 2017;23(1): 117-131.

turli vaziyatlarda foydalanishning asoslanganligi, endoprotezni tsement yoki sementsiz mustahkamlashi va boshqalar. Shvetsiya reestri o'z tadqiqotlari ma'lumotlarini taqdim etdi, unga ko'ra 2000 yilga kelib Skandinaviya mamlakatlarida asosan tsement bilan protezlar o'rnatildi. Sementsiz mahkamlash uchun maxsus qoplamaga asoslangan protezlar soni 5 martadan ko'proq (9 dan 11 mingtagacha sementlangan protezlar 1,5-2 mingtagacha) edi. Tsement bilan tutilgan protezlar uzoq muddatli ijobiy natijalarga ega ekanligiga qat'iy ishonch bor, bu protezlarga bunday afzalliklarni beradigan 10 yildan keyin 95% dan ortiq omon qolish ko'rsatkichlarini bildirgan ko'plab tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan. Tsementsiz fiksator protezlarining 10 yil davomida uzoq muddatli omon qolish natijalarini o'rganish taxminan 87% ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Osteotomiya texnikasini tanlash va asoslash rivojlangan mamlakatlarning mutaxassisleri orasida munozarali masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda tibbiy yordam xizmat ko'rsatishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib bu - tayanch-harakat tizimi shikastlanganda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini tubdan yaxshilash va kompleks maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishni anglatadi. Bularga «... sog'lom turmush tarzini shakllantirish va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish ...»³ kabi muhim vazifalar kiradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, shu jumladan displastik koksartrozni davolash natijalarini yaxshilash travmatologiya va ortopediyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi «Aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-238-sonli Qarori, 2022-yil 25-apreldagi «Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini yanada yaqinlashtirish va tibbiy xizmat samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-215-sonli Qarori; 2021-yil 12-apreldagi «Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sog'liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-4947 « O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» 2017 yilning 7 fevraldagi Farmoni

to'g'risida»gi PQ-6-sonli qarori, shuningdek, ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tayanch-harakat tizimi patologiyasiga ko'ra koksartrozning uchrash chastotasi gonartrozga nisbatan past, ammo nogironlik bo'yicha yetakchi o'rinlarda turadi. Displastik koksartroz rivojlanishining yetakchi etiologik sabablaridan biri chanoq-son bo'g'imi tug'ma rivojlanmagan strukturalari hisoblanadi (Lebedev V. F., 2013, Melugin H.P., 2022, Zhang S., 2020, Riedstra N.S., 2023, VingeR, 2023). Adabiyot manbalariga muvofiq, tug'ilish paytida son suyagining chiqishi 1000 dan 1 ta holatda, sonning qisman chiqishi yoki chanoq-son bo'g'imi displaziyasining uchrash chastotasi esa 1000 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqlarni 10 nafarini tashkil qiladi (Guille J.T., 2000). Hozirgi vaqtda chanoq-son bo'g'imi displaziyasining degenerativ kasalliklari tarkibida displastik koksartroz mustahkam ikkinchi o'rinni egallaydi va eng jiddiy kasalliklardan biri hisoblanadi. Bu kasallik Evropaning katta yoshdagi aholisining 7-25% ida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda chanoq-son bo'g'imiining degenerativ kasalliklarining kechi bosqichlarini davolashda eng samarali usul – bu chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash jarrohlik aralashuvi bo'lib, bunday operatsiyalar sonining yanada keng tarqalishi kutilmoqda (Tixilov R. M., 2014). 2000-2014 yillarda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, 2030 yilga kelib chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash 71% ni tashkil qilishinishi taxmin qilinmoqda (Sloan M. 2018), bu o'z navbatida revizion aralashuvlarning o'sishiga olib keladi. Revision prognozlariga ko'ra, birlamchi operatsiyalar soni 10% ni yoki yiliga 400.000 ga yaqin holatni tashkil qiladi (Schwartz A. M., 2020). Biroq, displastik koksartroz bilan og'rikan bemorlarni chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash vaqtida revision aralashuvlarining chastotasi 57% gacha yetishi mumkinligi haqidagi

ma'lumotlar ham mavjud (Imbuldeniya A.M., 2014). Revizion aralashuvlarning asosiy sababi operatsiyadan keyingi dastlabki 5 yil ichida namoyon bo'ladigan son komponentining aseptik o'zgaruvchanligi (barcha asoratlarning 10-15%), endoprotez dislokatsiyasi (5 dan 12,5% gacha) hisoblanadi (Tixilov R. M.,2014, Loskutov A. E., 2021). Revizion endoprotezlashning sabablari orasida jahon amaliyotida qayd etilgan periprotezli infektsiyaning chastotasi muhim ulushni, birlamchi chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashdan keyin 0,2–2,2% ni va revizion endoprotezlashdan keyin 7-15% ni (Shubnyakov I. I., 2019) tashkil qiladi. Birlamchi chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashning samaradorligini oshirishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash, bo'g'implarning funksiyasini optimal tiklash, bemorlarning mehnat qobiliyati va revizion aralashuvlar chastotasini kamaytirish darhol hal qilinishi talab qilinadigan eng dolzarb vazifadir.

Respublikamizda chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash degenerativ-destruktiv kasalliklarni, shu jumladan displastik koksartroz bilan og'rikan bemorlarni davolashda muhim va dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda. Bu borada muayyan yutuqlarga ham erishildi. Bemorlarni Xarris shkalasi bo'yicha 5,1 yildan so'ng davolash natijalarini baholash 76,2% holatda a'lo va yaxshi natijalar olindi (Tugizov B.E., 2013). chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashdan keyin (Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisi) 499 nafar bemor (20 yoshdan 60 yoshgacha) tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyasida tekshirilganda, ular orasida displastik koksartroz bilan og'rikan bemorlar 44,8% ni tashkil qildi, bemorlarning qisman reabilitatsiya darajasi ancha yuqori va 56,4% ni tashkil qildi (Asilova S. U., 2015). Aksariyat holatlarda, chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash ijobiy funksional natijaga ega, biroq amalga oshiriladigan davolanishni yanada takomillashtirish zarur (Azizov M.J.2010). Ijobiy natijalar sonini oshirish uchun bemorlarni operatsiyadan oldin to'g'ri individual kompleks tekshirish va chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashni rejalashtirish ya'ni, bo'g'implar funksiyasini tiklashga mos keladigan endoprotez komponentlarining turi va hajmini tanlash, yangi jarrohlik texnologiyalari va fiksatsiya asboblarini ishlab chiqish (Irismetov

M.E., 2022) bilan erishish mumkin. Shunday qilib, displastik koksartrozni davolash hozir kunda O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarb hisoblanadi, shu tufayli bu tadqiqot ishi munozarali masalalarni yechimini topish maqsadida, displastik koksartroz bilan kasallangan bemorlarni kompleks davolashning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Chanoq-son bo'g'imining tug'ma nuqsonlari va deformatsiyalarining mavjudligi endoprostetik komponentlarni o'rnatishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki endoprostetikaning standart talablariga rioya qilish va suyak to'shagi bilan etarli uzunlikdagi aloqani yaratish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratish kerak. va uning etishmovchiligi holatlarida, ular shakllangan yotoq bo'ylab normal bosim taqsimotini ta'minlash uchun jarrohdan katta mahorat talab qiladi (Bargar, 1989). (Korj A.A. va boshqalar, 1990; Linde, Jensen, 1988). Endoprotez tarkibiy qismlarining bo'shashishi, beqarorligi, asab va qon tomirlarining peri-cho'zilishi, mushaklarning etishmovchiligi, rehabilitatsiya keskin kuchayadi yoki bu bemorlarda qayta operatsiya qilish kerak bo'ladi (Linde, Jensen, 1988). Iida va at., 1993). Shuning uchun uni implantatsiya qilishning turli usullari taklif qilingan (Neverov V.A., 2006, Loskutov A.E., 2003, Karlov A.V., 2006), lekin ular har doim kerakli natijani kafolatlamaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universitetiining 2012–2021 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi son suyagi boshchasining bir tomonlama tug'ma chiqishi va tortinchi darajali displastik koksartrozi bo'lgan bemorlarda jarrohlik davolash usullarini takomillashtirish yo'li bilan chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash natijalarini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

uchinchi – tortinchi darajali displastik koksartros va sonning tugma chiqishi bolgan bemorlarda chanoq son bogimi elementlarining anatomik munosabatlarini klinik va rentgenologik tahlil asosida o'tqazish;

bir tomonlama yuqori son boshchasini tugma chiqishi va IV darajali displastik koksartrozda son suyagi boshchasini tushirish uchun qurilma ishlab chiqish;

bir tomonlama yuqori son boshchasini tugma chiqishi va IV darajali displastik koksartrozlarda jarrohlik davolashning kompleks usulini ishlab chiqish;

bemorlar chanoq-son bo'g'imining klinik, rentgenologik, shu jumladan MRT va MSKT tekshiruv ma'lumotlari asosida, bir tomonlama yuqori son boshchasini tugma chiqishi va bir tomonlama IV darajali displastik koksartrozni jarrohlik yo'li bilan davolashning kompleks usulini samaradorlik natijalarini baholash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida 2012-2023 yillarda Respublika Travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filiali klinikasida chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash bilan davolangan bir tomonlama III darajali displastik koksartroz va bir tomonlama yuqori son boshchasini tugma chiqishi tashxizi qo'yilgan 206 nafar bemorning klinik materiallari olindi.

Tadqiqot predmetini klinik tadqiqotlar natijalari, MRT, MSKT yordamida olingan radiologik ma'lumotlar, chanoq-son bo'g'imi quymich kosachasi va son sohasidagi strukturaviy o'zgarishlarni baholash uchun qo'shimcha radiologik usullar, ma'lumotlarni kompleks statistik baholash natijalari tashkil qildi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida klinik, rentgenologik usullaridan, shu jumladan, osteoporozni baholash uchun Singh indeksi, De Lee va Charnley indeksleri bo'yicha endoprotez kosachasi atrofidagi suyak strukturalari, Gruen indeksi bo'yicha esa endoprotez oyoqchasi atrofidagi son suyagining diafiz po'stlog'i, hamda qo'shimcha ravishda MSKT va MRT, bemorning ahvolini baholash va differentsial diagnostika uchun laboratoriya tekshiruvlari, bemorlarning funktsional holatini baholash uchun Xarris shkalasi qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir tomonlama sonning tugma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi bo'lgan bemorlarda ixtiro qilingan qurilmada dozali traksiya berish son boshchasini quymich kosasining anatomik to'g'risigacha pastga tushirishga imkon berishi isbotlangan;

ixtiro qilingan qurilma bilan bir tomonlama sonning tugʻma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi boʻlgan bemorlarda sonni pastga tushirish samaradorligi hamda oʻtirgʻich nervi va qon-tomirlar traksion shikastlanishining oldi olinishi isbotlangan;

bir tomonlama sonning tugʻma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi boʻlgan bemorlarda ixtiro qilingan ikki bosqichli kompleks davolash usuli bilan yumshoq toʻqimali regeneratni hosil qilish orqali son boshchasini quymich kosasining anatomik toʻgʻrisigacha pastga tushirish va birinchi bosqichda va chanoq-son boʻgʻimini total endoprotezlash esa ikkinchi bosqichda bajarilishi samarasi isbotlangan;

bir tomonlama sonlarning tugʻma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi boʻlgan bemorlarda ishlab chiqilgan jarrohlik davolash usuli qoʻllanilganda chanoq-son boʻgʻimining funksiyasi tiklanishi, endoprotez komponentlari mustahkamligining taʼminlanishi, jarrohlik amaliyoti vaqti xam qisqarishi, Xarris shkalasining baholash natijalari asosiga koʻra bemorlarning davolanish sifatini yaxshilanishi, chanoq-son boʻgʻimini birlamchi total revizion endoprotezlashni oldini olishi va operatsiyadan keyingi reabilitatsiya erta boshlanishi imkonini berishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

klirik va rentgenologik usullar, shu jumladan MRT va MSKTni tahlil qilish asosida bir tomonlama yuqori son suyagi boshchasi tugʻma chiqishi va III-IV darajali bir tomonlama displastik koksartroz boʻlgan bemorlarni davolashda ishlab chiqilgan algoritm funktsional va anatomik natijalarni yaxshilash va 7-10 kun statsionarda davolash vaqtini qisqartirish imkonini bergan;

displastik koksartrozni jarrohlik bilan davolashning tavsiya qilingan usuli jarrohlik aralashuvi vaqtini qisqartirishga, erta reabilitatsiyani boshlashga va chanoq-son boʻgʻimi funksiyasini toʻliq tiklashga imkon bergan;

son suyagining yuqori tugʻma chiqishida son suyagini pastga tushirish uchun ishlab chiqilgan qurilma chanoq-son boʻgʻimi funksiyasi keyinchalik tiklanishi bilan quymich nervi va qon tomirlarning traksion shikastlanishini istisno qiladi;

ishlab chiqilgan qurilma va displastik koksartrozni jarrohlik yo‘li bilan davolash usuli endoprotez tarkibining barqarorligini 3.5% ga oshirish imkonini berdi va chanoq-son bo‘g‘imi funksiyasini tiklanishini osonlashtirgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning ob'ektiv klinik va rentgenologik usullari natijalari, yetarlicha bemorlar soni, shuningdek bemorlarni tekshirish natijalarini statistik qayta ishlash protokollari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bemorlarni tekshirishning differentsial yondashuvi asosida III darajali displastik koksartroz va IV darajali displastik koksartroz bilan birga kechuvchi bir tomonlama yuqori son suyagining tug'ma chiqishini jarrohlik davolash usullari ishlab chiqilganligi jarrohlik amaliyoti vaqtini qisqartirish, qon yo‘qotishni kamaytirish, operatsiyadan keyingi erta reabilitatsiyani boshlash va bemorning statsionarda qolish muddatini qisqartirish, operatsiyadan keyingi asoratlar sonini kamaytirish va birlamchi son suyagining yuqori tug'ma chiqishidadan keyin revision aralashivni oldini olish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, yaratilgan qurilma asosida III-IV darajali displastik koksartroz bilan og'rigan bemorlar uchun ikki bosqichli chanoq-son bo‘g‘imini total endoprotezlashni ishlab chiqilgan usullari chanoq-son bo‘g‘imining anatomik va funktsional natijalarini yaxshilash, davolash samaradorligini sezilarli darajada oshirish va 96,5 % holatlarda ijobiy natijalar olish imkonini berdi, bu esa birlamchi chanoq-son bo‘g‘imini total endoprotezlash yordamida displastik koksartrozni jarrohlik yo‘li bilan davolashda zamonaviy yutuqlarga katta hissa qo‘shishi bilan izhlanadi.

I. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash vazirligining 2024-yil 25-sentabrdagi №06/06-sonli xulosasiga muvofiq ilmiy ishlanmalarni boshqa sog‘liqni saqlash muassasalariga joriy qilish masalalari bo‘yicha:

birinchi ilmiy yangilik: bir tomonlama sonning tug‘ma chiqishi va bir tomonlama IV-darajali displastik koksartrozi bo‘lgan bemorlarda ixtiro qilingan

qurilmada dozali traksiya berish son boshchasini quymich kosasining anatomik to'g'risigacha pastga tushirishga imkon berishi isbotlangan. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari sog'liqni saqlash sohasining amaliy faoliyatiga, xususan, usul Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida (2023-yil 10-may, 146-son) va Samarqand viloyati Nogironlarni rehabilitatsiya markazida (2023-yil 1-iyul, 29-A son) joriy qilingan. *Ijtimoiy samaradorlik* quyidagilardan iborat: operatsiyadan oldingi bosqichda individual xarakterga ega bo'lgan displastik chanoq-son bo'g'imining anatomik va funksional shikastlanishlarining xususiyatlarini va osteoporozni aniqlash chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashni o'tkazishni adekvat rejalashtirish imkonini beradi, endoprotezni o'rnatish vaqtida sinishni jarrohlikdan keyingi asoratlardan revizion aralashuvni oldini oladi va 35% dan 3.5 % gacha kamaytirish imkonini beradi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: son suyagining yuqori tug'ma chiqishida chanoq-son bo'g'imining displaziyasi va displastik koksartrozning yuqori chastotasi operatsiyadan oldingi davrni puxta rejalashtirishni talab qiladi, chunki kompleks shikastlanishlar va chanoq-son bo'g'imining funksiyasini yo'qolishi kuzatilgan holatlarda endoprotezlashni amalga oshirish texnik jihatdan murakkab hisoblanadi. Bemorlarni har tomonlama batafsil tekshirish jarrohlik davolashning samarali taktikasini ishlab chiqishga individual yondoshuv, chanoq-son bo'g'imining tarkibiy va funksional jihatdan normadan ortda qolishini baholash, operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytirish, endoprotezning davomiyligini va bemorlarning hayot sifatini oshirish imkonini beradi, shu sababli bemorlarni statsionar sharoitida davolanishini qisqartirib, davlat byudjet mablag'larini 967 000 so'mga iqtisod qiladi. *Xulosa:* quymich kosachasi va son suyagining to'liq shikastlanishini hisobga olgan holda bemorlarning chanoq-son bo'g'imini operatsiyasidan oldin har tomonlama tekshiruviga asoslangan yondashuvlar operatsiyadan oldin rejalashtirish va chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashni amalga oshirishda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun muhim hisoblanadi va davlat byudjet mablag'larini 967 000 so'mga iqtisod qilishga imkon bo'ladi.

ikkinchi ilmiy yangilik: ixtiro qilingan qurilma bilan bir tomonlama sonning tugʻma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi boʻlgan bemorlarda sonni pastga tushirish samaradorligi hamda oʻtirgʻich nervi va qon-tomirlar traksion shikastlanishining oldi olinishi isbotlangan. Dissertatsiya tadqiqotlarining natijalari sogʻliqni saqlash, xususan bu usul Buxoro viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazida (2023-yil 10-may, 146-son) va Samarqand viloyati Nogironlarni reabilitatsiya markazida (2023-yil 1-iyul, 29-A son) joriy qilingan.

Ijtimoiy samaradorlik quyidagilardan iborat: displastik koksartroz bilan ogʻrigan bemorlarda nogironlikning yuqori darajasi bu bemorlarni yillar davomida konservativ davolashning samarasiz kechayotganligi tufayli, jarrohlik davolash amaliyotida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Yoshlar toʻliq ishlay olmaydi, hayot sifati yomonlashadi. Biz tomondan ishlab chiqilgan usullar asosida chanoq-son boʻgʻimini total endoprotezlashning qoʻllanilishi asoratlar xavfini kamaytiradi, bu esa ishlash qobiliyatini toʻliq tiklashga imkon beradi noigironlikning 35 % dan 3.5 % gacha kamaytiradi.

Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: son suyagini anatomik quymich sohasigacha tushirish uchun ishlab chiqilgan qurilmaning qoʻllanilishi natijasida, oyoqlar uzunligining teng boʻlishiga erishiladi, jarrohlik aralashuvi vaqti qisqaradi va qoniqarsiz natijalar ulushi kamayadi, bu esa oʻz navbatida davlat byudjet mablagʻlarini 967 000 somga tejashni taʼminlaydi.

Xulosa: displastik koksartroz displastik shikastlanishlarning butun majmuasi va jarrohlik amaliyotidagi qiyinchiliklar bilan bogʻliq boʻlgan chanoq-son boʻgʻimini eng ogʻir patologiyalaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli mavjud jarrohlik davolash usullari doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Biz ishlab chiqqan qurilma dozalangan traksiyaga asoslangan boʻlib, uni jarrohlik davolash amaliyotining samaradorligini taʼminlash maqsadida bir tomonlama yuqori son suyagining yuqori tugʻma chiqishida va bir tomonlama III–IV darajali displastik koksartrozni davolashda qoʻllash mumkin, bu esa oʻz navbatida davlat byudjet mablagʻlarini 967 000 somga tejashni taʼminlaydi.

uchinchi ilmiy yangilik: bir tomonlama sonlarning tugʻma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi boʻlgan bemorlarda ixtiro qilingan ikki bosqichli kompleks davolash usuli bilan yumshoq toʻqimali regeneratni hosil qilish orqali son boshchasini quymich kosasining anatomik toʻgʻrisigacha pastga tushirish va birinchi bosqichda va chanoq-son boʻgʻimini total endoprotezlash esa ikkinchi bosqichda bajarilishi samarasi isbotlangan. Usul Buxoro viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazida (2023-yil 10-may, 146-son) va Samarqand viloyati Nogironlarni reabilitatsiya markazida (2023-yil 1-iyul, 29-A son) joriy qilingan. *Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: Son suyagining yuqori tugʻma chiqishi bilan ogʻrigan bemorlarni davolashda son suyagi boshchasini pastga tushirish uchun ishlab chiqilgan jarrohlik usulidan foydalanish markazlashtirish va boshchasini endoprotez kosachasiga kiritish uchun sharoit yaratish bilan operatsiyadan keyingi asoratlarning oldini olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy moslashuvini oshiradi. Ishlab chiqilgan qurilma yordamida amalga oshirilgan jarrohlik taktikasi endoprotezning barqarorligini taʼminlaydi va endoprotezning dislokatsiyasi kabi ogʻir asoratlar xavfini kamaytiradi va birlamchi endoprotezlashning yaxshi natijalarini 96.5 % gacha oshishini imkoniyatini beradi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: son suyagining boshchasini proksimal boʻlimiga tushirish uchun yaratilgan qurilma xavfsiz jarrohlik amaliyotini oʻtkazish uchun zamin yaratadi, asoratlar xavfini va bemorning kasalxonada qolish muddatini sezilarli darajada kamaytiradi, 967 000 soʻmga byudjet xarajatlarini tejashni taʼminlaydi. *Xulosa:* son suyagining yuqori tugʻma chiqishida son suyagi boshchasini pastga tushirish uchun ishlab chiqilgan qurilma displastik koksartrozning ogʻir asorati yaʼni nogironlikni oldini olish imkonini beradi, hamda juda murakkab va bir qancha asoratlar bilan bogʻliq son suyagi osteomiyasida tavsiya qilinadigan muqobil hisoblanadi, shu sababli davlat byudjet mablagʻlarini 967 000 soʻmga tejaladi.

toʻrtinchi ilmiy yangilik: bir tomonlama sonlarning tugʻma chiqishi va bir tomonlama 4-darajali displastik koksartrozi boʻlgan bemorlarda ishlab chiqilgan jarrohlik davolash usuli qoʻllanilganda chanoq-son boʻgʻimining funksiyasi

tiklanishi, endoprotez komponentlarining mustahkamligining ta'minlanishi, jarrohlik amaliyoti vaqti xam qisqaririshi, Xarris shkalasining baholash natijalari asosiga ko'ra bemorlarning davolanish sifatini yaxshilanishi, chanoq-son bo'g'imini birlamchi total revizion endoprotezlashni oldini olishi va operatsiyadan keyingi reabilitatsiya erta boshlanishi imkonini berishi isbotlangan. Usul Buxoro viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida (2023-yil 10-may, 146-son) va Samarqand viloyati Nogironlarni reabilitatsiya markazida (2023-yil 1-iyul, 29-A son) joriy qilingan.

Ijtimoiy samaradorlik quyidagilardan iborat: IV - darajali displastik koksartrozi bo'lgan bemorlarda chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashdan keyingi operatsion asoratlarning yuqori chastotasini (22 dan 33% gacha), shu jumladan revizion endoprotezlashni (33%), ikki bosqichli murakkab jarrohlik davolash amaliyoti yordamida oldini olish mumkin. Bu bemorlarni erta mobilizatsiya qilish, og'riqni sindromini kamaytirish hisobiga funksional imkoniyatlarni kengaytirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyati, harakat faoliyati va ish qobiliyatini oshirish imkonini beradi, bemorlarning statsionarda qolish vaqtini qisqartiradi, to'qimalarning intraoperatsion shikastlanish xavfini kamaytiradi, endoprotezning tarkibiy qismlari chidamliligini saqlash imkonini beradi va hanoq-son bo'g'imining funksional tiklanish vaqtini qisqartirishni ta'minlaydi. *Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi* quyidagilardan iborat: Ikki bosqichli chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash natijasida bemor faol mehnat faoliyatiga qaytadi, davlat byudjetidan 967 000 so'm mablag' tejaladi. *Xulosa*: Ikki bosqichli chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash chanoq-son bo'g'imining og'ir shakllari, son suyagining tug'ma chiqishi, 3-4 darajali dsplastik koksartrozning bo'lgan bemorlar oyoqlarining anatomik uzunligini tiklash uchun samarali davolash usuli bo'lib, operatsiyadan keyingi asoratlarning yuzaga kelishini oldini oladi, ish qobiliyatini tiklanishini va bemorni faol mehnatga qaytishini ta'minlaydi, hamda davlat byudjet mablag'laridan 967 000 so'm iqtisod qilinadi. Ishlab chiqilgan usuldan foydalanib, ijobiy natijalar ulushini 96,5% gacha oshirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi va materiallariga doir jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. Ixtiro uchun 1 ta patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, besh bob, xulosa, qisqartmalar ro'yxati, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida son suyagining yuqori tug'ma chiqishi va 3-4 darajali displastik koksartroz kuzatilgan holatlarda chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar aniq shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmetiga tavsif berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan. Ilmiy yangilik va olingan natijalarning amaliy ahamiyati yoritilgan, amaliy sog'liqni saqlashga joriy qilinganligi ko'rsatilgan, mavzuga doir nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Displastik koksartrozning epidemiologiyasi, klinik ko'rinishi, diagnostikasi va davolashning hozirgi holati (adabiyotning tahliliy sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobi ushbu kasallikning muammosi bo'yicha zamonaviy adabiyotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan: chanoq son bo'g'imi displaziyasi va displastik koksartrozning keng tarqalishi, koksartroz va displaziyaning tasniflari mavjud bemorlarni tekshirish xususiyatlari. Jarrohlik davolash taktikasi bo'yicha zamonaviy ma'lumotlar taqdim qilingan. Chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashning afzalliklari tavsiflangan. Yuqori

sonnsuyagining chiqishi va 3-4 darajali displastik koksartroz sharoitida son suyagi boshchasini tushirishda qo'llanilgan mavjud qurilmalarning kamchiliklari tahlil qilindi. Bob yakunida tahlil qilingan adabiyot manbalariga asoslanib, keyingi tadqiqotlar istiqbollari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Materiallar va tadqiqot usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida keng qamrovli klinik tekshiruv va bemorlar ahvolini nazorat qilish (Harris shkalasi), instrumental usullarning (son bo'g'imining rentgenometrik tekshiruvlari bilan rentgenografiya, MRT va MSKT) ma'lumotlarini taqdim qilingan. Endoprotez atrofidagi suyak holatini nazorat qilish usullari yoritilgan, raqamli ko'rsatkichlarning statistik qayta ishlovi amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishi 2012 yildan 2023 yilgacha Respublika travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filiali klinik bazasida amalga oshirildi. Bemorlarni tadqiqotga kiritishning asosiy mezonini, shu jumladan sonning tug'ma chiqishi fonidagi displastik koksartroz hisoblanadi. 206 nafar bemor tekshirildi va operatsiya qilindi. Crowe J.F. klassifikatsiyasiga muvofiq displaziyani turi hisobga olinib bemorlar guruhlarga taqsimlandi. Tadqiqotda ayollar soni ustun bo'lib, ular - 163 (79,1%) nafarni, erkaklar - 43 (20,9%) nafar, 30 yoshdan 71 yoshgacha va undan kattalar: 30 yoshgacha -28,16%, 31-50 yosh 37,38, 51-60 yosh - 25,24 %, 61-70 yosh - 8,73%, 71 va undan kattalar - 0,49% ni tashkil qildi. Bemorlar ikki guruhga bo'lingan: birinchi guruh III darajali displastik koksartrozda bir bosqichli endoprotezlashdan keyin (184 nafar bemor) va nazorat guruhidagi bir tomonlama son suyagining yuqori tug'ma chiqishida va bir tomonlama IV darajali displastik koksartroz bilan og'riq bemorlar (82 nafar bemor) bo'lib, ularda son suyagi boshchasini pastga tushirishda Mamatkulov apparatini qo'llash operatsiyalari va pastga tushirilgandan keyin endoprotezlash operatsiyalari amalga oshirildi. Qabul vaqtida, bemorlar og'riqning dori preparatlari bilan bartaraf qilinmaganligidan shikoyat qilgan. Tekshiruv davomida displastik koksartroziga shubha qilingan bemorlarning kasallik tarixi ma'lumotlari yig'ildi va tahlil qilindi, bemorning ahvolini va differentsial tashxisini baholash maqsadida laboratoriya tekshiruvlari, vertikal, gorizontol holatidagi va bemorning yurishi paytidagi holatining klinik

tekshiruvlari amalga oshirildi (Doerti M., Doerti D bo'yicha). Tomas, Patrick/FABER va FADIR testlari va rotatsion testdan ("Leg-Roll-Test") foydalanilgan. Son suyagining proksimal qismini (bo'yin-diafizar burchagi, anteverziya, boshchaning sharsimonlik darajasi va frontal inklinatsiya burchagi, Shenton chizig'i) va quymich kosachasini (quymich qiyaligi, Viberg burchagi, quymich kosachasi indeksi, atsetabulyar indeks) tavsiflovchi ko'rsatkichlar bo'yicha rentgenometriya amalga oshirildi. Bundan tashqari, barcha bemorlarda MSKT va MRT o'tkazildi. Ma'lumotlar bemorlarning taqsimlanishi bo'yicha o'tkazilgan rentgen tekshiruviga ko'ra ma'lum tartibda taqdim etiladi. Operatsiyadan oldin son suyagining proksimal bo'limining strukturasi rentgenologik baholash va osteotropik terapiyani tayinlash uchun Singx rentgenologik indeksidan foydalanildi. Endoprotezlash natijalari uchta sohada (De Lee va Charnley bo'yicha) endoprotez kosasi atrofidagi suyak strukturalarining holati nazorat qilindi, endoprotez oyoqchsi atrofidagi son suyagi diafizining postlog'ining holati 7 ta zonada baholandi (Gruen bo'yicha). Chanoq-son bo'g'imi (Harris Hip Score) uchun Xarris klassifikatsiyasidan foydalanildi. Raqamli ko'rsatkichlar statistik jihatdan qayta ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning «**Displastik koksartroz bilan og'rigan bemorlarni tekshirishning klinik va instrumental usullari natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobda bemorni jarrohlik davolashga tayyorlashda kompleks tekshiruv ma'lumotlari taqdim qilingan. Bemor anamnezi ma'lumotlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish, chanoq suyagi va quymichning tarkibiy qismlarining holati, suyak sifati, umumiy jismoniy holati, mushak guruhlaridagi kontraktura o'zgarishlarning xususiyatlari, oyoqlarning qisqarish hajmi va bemorlarning jismoniy holatini o'z ichiga olgan chanoq-son bo'g'imi funksiyasi ko'rsatkichlarini baholash bilan keng qamrovli klinik va rentgenologik tekshiruv natijalari asosida chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashda ratsional yondashuvni tanlab olish amalga oshirildi. Tadqiqot davomida III darajali displastik koksartroz bo'yicha bir bosqichli endoprotezlash amalga oshirilgan bemorlarda (nazorat guruh, 124 nafar bemor) oyoqlarining 4 sm. gacha nisbiy qisqarishi aniqlandi. Bir tomonlama yuqori SSTCh va bir tomonlama

IV darajali displastik koksartroz (asosiy guruhi, 82 nafar bemor) bilan kasallangan bemorlar oyoqlarining nisbiy qisqarishi 4 sm. dan ortiq ekanligini ko'rsatdi. 24 (11,6%) nafar bemorda osteoporoz aniqlandi, bu jarrohlik davolash amaliyoti vaqtida hisobga olindi. Shikastlanishlarni tahlili bilan birga bemorlarni tekshiruvi natijasida olingan ma'lumotlari bizga bemorni erta reabilitatsiya qilish va endoprotezning uzoq muddatli barqaror ishlashini prognoz qilishda ratsional individual jarrohlik taktikasini yaratish imkoniyatini berdi.

Dissertatsiyaning «**Son suyagining tug'ma chiqishi va displastik koksartroz bilan og'rigan bemorlarni jarrohlik yo'li bilan davolash**» deb nomlangan to'rtinchi bob chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlashda yondashuvlarni ishlab chiqishga asoslangan. Jarrohlik usuli displastik koksartroz bilan og'rigan bemorlarni davolashda asosiy usul sifatida ifodalangan. Jarrohlik yo'li bilan davolashning asosiy usullari 2- guruh bemorlari uchun ko'rsatilgan:

Nazorat guruh - III darajali displastik koksartrozda bir martalik chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash (124 nafar bemor – 60,2%);

Asosiy - guruh – son suyagi boshchasini pastga tushirishda Mamatkulov apparatini qo'llash va bir tomonlama son suyagining yuqori tug'ma chiqishida va bir tomonlama IV darajali displastik koksartrozda son suyagini pastga tushirilgandan keyingi chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash (82 nafar bemor-39,8%).


206 nafar bemordan erkaklar 20,9% ni, ayollar 79,1% ni tashkil qildi, erkaklarning ayollarga bo'lgan nisabati 1:3,8, ya'ni ayollarda displastik koksartrozning darajasi erkaklarnikiga qaraganda ancha yuqori.

Jarrohlik aralashuvining amalga oshirilishining asosiy sababi, medikomentoz terapiya ta'sir qilmaydigan og'riq va shuningdek, funktsional va jismonan cheklanish, shu jumladan jismoniy va psixo-emotsional planda bemorning hayot sifatining pasayishi bilan birga kechuvchi harakat faoliyatning buzilishi hisoblanadi. Jarrohlik davolash bemorlarni tekshirish natijalariga bog'liq bo'lib, ularga asoslanib davolash usuli tanlangan: bir bosqichli chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash III darajali displastik koksartroz (birinchi guruh) bilan og'rigan 124 nafar (60,2%) bemorda va bir tomonlama son suyagining yuqori tug'ma chiqishida

va bir tomonlama IV darajali displastik koksartroz (nazorat guruhi) bo'lgan 82 (39,8%) nafar bemorda o'tkazildi.

Amalga oshirilgan 206 ta oldingi yonbosh operatsiyalaridan III darajali displastik koksartroz bilan bir bosqichli endoprotezlash jarrohlik amaliyoti operatsiyalarning umumiy sonining 89 nafarida (43,20%), shuningdek, bir tomonlama son suyagining yuqori tug'ma chiqishida va bir tomonlama IV darajali displastik koksartroz bilan 82 (39,81%) nafar bemorda qo'llanilgan. Bevosita yon tomondan kirish III darajali displastik koksartroz bilan bir bosqichli endoprotezlash 28 ta (13,59%) holatda qo'llanilgan, 7 ta (3,40%) holatda kengaytirilgan kirish III darajali displastik koksartroz bilan bir bosqichli endoprotezlash qo'llanilgan.

Texnik nuqtai nazaridan, bevosta kirishdan foydalanish eng qulay hisoblanadi, chunki u operatsiya bosqichlarida vizual-texnik nazorat qilish imkoniyatini beradi. Biz tomondan ikki bosqichli chanoq-son bo'g'imini total endoprotezlash usuli ishlab chiqildi va sonni anatomik quymich darajasigacha tushirish uchun qurilma yaratildi (1-rasm). Son suyagini tushirish uchun moslashgan qurilma chanoq tayanchi va son suyagi tayanchini, hamda ularga o'rnatilgan suyak fiksatorlarini o'z ichiga oladi. Biz yaratgan qurilma mavjud analoglaridan bir qator texnik yechimlari bilan farq qiladi. Qurilma o'zaro bog'langan chanoq va son suyagi tayanchlarni o'z ichiga oladi. Ularning o'zaro joyini o'zgartirish mumkin. Suyak fiksatorlari tayanchlarga o'rnatilgan.



1-rasm. Son suyagini anatomik quymich kosachasi darajasigacha tushirish uchun qurilma

Tayanchlar son tayanchiga mustahkamlangan uchta teleskopik ustunlar bilan bog'langan. Teleskopik ustunlarning proksimal uchlari bir tekislikli o'qli qo'zg'almas ilgaklar yordamida chanoq suyagining tayanchiga ulangan, chanoq tayanchiga ular jihozlangan tirgovuch supachali simlar bilan mahkamlangan. Son suyagi tayanchida suyakka o'zaro kesishgan ikkita vint o'rnatilgan va jihozlangan tirgovuch supachali uchta sim bilan mahkamlangan. Qurilmani o'rnatish qulay, bemorlarga u noqulaylik tug'dirmaydi. Qurilmaning xarakteristikasini hisobga olib, chanoq-son bo'g'imi rentgen anatomiyasining asosiy diagnostikasi va individual xususiyatlariga asoslanib, qurilmadan foydalanishning ko'rsatkichlari aniqlandi. Endoprotezlashdan oldin son suyagi boshchasini pastga tushirish yondashuvining o'ziga xos xususiyati (jarrohlik davolashning 1-bosqichi) bu – distraksion strukturaning chanoq qismini yonbosh suyaklari qanotlari orqasida o'rnatish hisoblanadi. Son qismi sonning proksimal va distal qismlariga o'rnatildi. Butun tizimni o'rnatish Ilizarov printsiplari va qoidalariga muvofiq amalga oshirildi. Asosiy konsatruksiya o'rnatilgandan keyin, son suyagini bosqichma-bosqich tushirish amalga oshirildi. O'rtacha tushirish muddati 60 kunni tashkil qildi. Tushirishning bir bosqichi bemorning sub'ektiv hissiyotlariga bog'liq edi.

